

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar dunyoqarashini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari

Qarshi DU, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim

metodikasi kafedrası dotsenti N. Oripova,

Magistr S. Ashurova

Annotatsiya: ushbu maqolada dunyoqarashni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari bayon qilingan bo'lib, dunyoqarash tushunchasining mazmun-mohiyati, shakllanish jarayoni ham tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada dunyoqarash shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar izohlab berilgan.

Asosiy tushunchalar: dunyoqarash, ma'naviyat, shaxs, oila, milliy tarbiya, o'z-o'zini anglash, jamiyat va boshqalar.

Yurtimiz tarixiga nazar tashlasak, barcha davrlarda ma'naviy barkamollik jamiyat rivojlanishining eng muhim omillaridan biri bo'lib kelgan. Zotan, yuksak ma'naviyat va keng dunyoqarashga ega shaxslar, o'z-o'zini anglagan holda boshqalarga ham hurmat nazari bilan qaraydi, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, insonlararo munosabatlarga mustaqil fikr bildira oladi. Eng muhimi jamiyat bilan birgalikda faoliyat yuritib, uning faol a'zosiga aylanadi. Shu bilan birga, sog'lom dunyoqarashga ega shaxslar har qanday g'oyalar, fikrlarga ham qarshi tura oladi.

Xo'sh dunyoqarash o'zi nima ? dastlab ana shu savolga javob topmog'imiz darkor.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da dunyoqarash tushunchasiga shunday ta'rif beriladi: “tabiat va jamiyatga, ularning voqea-hodisalariga bo'lgan ilmiy, mafkuraviy, ma'naviy, ilohiy qarashlar tizimi” [1; 665].

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da esa: Dunyoqarash- dunyoga va insonning undagi o‘rniga, kishilarning o‘z atrofidagi voqelikka va o‘z- o‘ziga munosabatiga bo‘lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e‘tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari [2, 382] - deb ta’rif beriladi.

Faylasuf olim E. Yusupov ”Falsafa” darsligida dunyoqarashni – bu, avvalo, inson o‘zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, tushunishi, bilishi va baholashi natijasida yuzaga kelgan xulosalari, bilimlari asosida shakllangan umumlashmalar tizimidir [3;8]-deb baholaydi.

Ushbu ta’riflarga ko‘ra dunyoqarashni quyidagicha izohlashimiz mumkin: dunyoqarash – bu kishilarning olam va odamlar, jamiyat, kishilar o‘rtasidagi munosabatlarga oid bir butun qarashlari, tushunchalari yig‘indisidir.

Pedagogik nuqtai-nazar bilan yondoshadigan bo‘lsak, dunyoqarash – shaxsning shaxsligini, ma’naviyatini, e‘tiqodini, o‘tmish, bugun va kelajak haqidagi qarashlarini ifodalovchi kuchli motivi, hissiy jarayonidir. Shu bilan birga dunyoqarash – shaxsning tartibga keltirilgan bilim, tasavvurlari hamdir.

O‘z navbatida dunyoqarash doimo rivojlanib, takomillashib, boyib, sayqallanib boradigan jarayon hisoblanadi. Mutlaq qotib qolgan dunyoqarash bo‘lmaydi. Shu bois shaxs dunyoqarashining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Jamiyatdagi rivojlanish, o‘zgarish va yangilanishlar.
2. Tabiatdagi hodisalar.
3. Insonlar o‘rtasidagi munosabatlar.
4. Shaxsning yoshi, hayotiy tajribasi, aqliy salohiyatining ortishi.
5. Ta’lim-tarbiya va boshqalar.

Bizga ma’lumki, shaxsning dunyoqarashi ilk bolalik yillaridan boshlab shakllana boshlaydi. Bola borliq va dunyoni his etar ekan, dastlab barcha voqea-hodisalarni o‘z ongida aks ettiradi, analiz va sintez qiladi. Unga yangi nom berib,

mohiyati va ahamiyatini baholab boradi. Bu esa uning olam, kishilar, narsa va jismlar haqidagi bir butun tasavvur va kechinmalari, orzu-umidlari, qadr-qimmatga ega bo'lgan voqea-hodisalari, qolaversa, g'oyalarini o'z milliy tilida ifoda etish imkoniyatini yaratadi.

Demak, kelajak avlod tarbiyasi uning dunyoqarashini o'stirish bilan bog'liq ekan, bu borada albatta bolaning yosh va ruhiy holatini hisobga olish talab etadi. Shu boisdan ta'lim-tarbiya jarayonida bola dunyoqarashini o'stirishda bir qator pedagogik talablarga rioya qilish lozim bo'ladi:

1. Bola dunyoqarashini o'stirish va boyitish uchun dastlab oilada sog'lom muhit bo'lishi;

2. Bola kun tartibini to'g'ri taqsimlash: uning o'ynashi, dam olishi, ovqatlanishi uchun yetarli shart-sharoit yaratish;

3. Muntazam ota-ona bolani psixolog va boshqa shifokorlar ko'rigidan o'tkazib borishi;

4. Bolaning estetik didi, aqliy ongi, nutqini o'stirishga alohida e'tibor qaratish.

5. Bolaga tabiat, kishilar, tevarak-atrof tasvirlangan rangli va tasvirli kitoblarni sovg'a qilish;

6. Maktabgacha ta'lim muassalarida tashkil etiladigan mashg'ulotlarni o'yin va sayohat shaklida olib borishga erishish;

7. Bola bilan ko'rgan va eshitganlar narsalari, voqea-hodisalar, kishilarning hatti-harakatlari haqida suhbat o'tkazish, savollar berish orqali munosabatini aniqlash va boshqalar.

Yuqoridagi fikrlar va mavjud adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilishdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar dunyoqarashini shakllantirish muammosi bugungi kunda yetarlicha hal etilmagan masala bo'lib

kelmoqda. Ana shu muammoni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish esa biz olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishimizning asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: 665 b.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: 382 b
3. Yusupov E. Falsafa. T: Sharq, 1999. -8 b.